



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Amir Temurning boshqa davlatlar bilan siyosiy aloqalari

**Rahmatullayev Muhammadzohid
Ahmadov Kamoliddin**

Farg'ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalar
Fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Rustamov Isomatjon**

Annatsiy. Ushbu maqolada Amir Temurning yoshlik davri, hokimiyatga kelishi, Temuriylar davlatiga asos solishi va turli davlatlar bilan o'zaro siyosiy aloqalari haqida ma'lumotlar jamlangan.

Kalit So'zlar: yoshlik davr, hokimiyatga kelish davlat barpo etish, yevropa davlatlar bilan o'zaro aloqalar

Tavallud va Bolalik: Yuqorida zikr qilinganidek, Amir Temur xijriy 736-yilning ramazon oyida (milodiy 1336-yilning 9-aprelida) Kesh (hozirgi Shahrisabz)ning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan. Xijriy 807-yil Sha'bon oyida (milodiy 1405-yil fevrali) O'tror shahrida yaqinida vafot etgan. Samarqandga keltirilib dafn etilgan.

Otasi: Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay barlos urug'ining nufuzli oqsoqoli edi. Tarag'aybekning tug'ilgan yili no'malum bo'lib, 1360-yilda vafot etgan. U xarbiy yurishlarga mayli yo'q, taqvodor musulmon kishi edi. Ko'p vaqtini so'fiylar bilan o'tka-zar edi. Sharahiddin Aliy Yazdiyning yozishicha, "Targ'aybek ulamoyu sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mexribon erdi, bu-larning majlisiga borur erdi..."

Onasi: Temurning onasi Tegin Xotun Takina begim, Takin Moxbegim ismlari bilan mashhur ayol bo'lgan. Taxminan 1383-yili Buxoroda tug'ilgan. 1353-yilda Shahrisabzda vafot etgan. Tegin Xotun Buxoro ulamolari peshvosi atoqli faqih, sadrush-shari'a mavlono Ubaydullox Buxoriyning avlodidan edi. Tegin Xotun milodiy 1334-yili 16 yoshida Tarag'aybekka uzatilib, oradan ikki yil o'tgach, Temurbek tavallud topgan.

Temurbekning bolalik va yoshlik yillari: Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag'aybek o'z chog'ining odatlariga ko'ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o'q otishni o'rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo'rqmas bahodir bo'lib ulg'ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o'qimishsiz bo'lganligi to'g'risida kunbotar ellari o'rtasida yanglish qarash ular chindek o'rnashib qolgan. Temurbek o'zi to'g'risida kitobida 21 yoshga to'lganida otasining hosili yaxshi bo'lganini, qoramol va yilqilar ko'p bolalaganini, o'zi ularni 10 tadan qilib ishchilariga bo'lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to'g'risida ma'lumot oz.



Temurbekning siyosatga kirib kelishi: 1358-yil Qazag'anbekning o'limidan so'ng [Movarounnahrda](#) boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi. Tug'luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlar topshiriladi. Tug'luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo'shin yig'adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1361-yil martda Tug'luq Temur yana Movarounnahrda yurish qiladi. Temurbek yana Tug'luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrda xon qilib Ilyosxo'ja, Tug'luq Temurning o'g'li, tayinlanadi. Tug'luq Temur o'z yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi so'rovi va bergan so'zlariga ko'ra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Seyiston hokimi so'zini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yo'ldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qo'shini chekinadi. Temurbekning o'ng qo'li va o'ng oyog'i yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arig'i oldida, Abu Said, Mangli Bu'ga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Dashti Ko'lankaga keladi. Toshko'prik yaqinida Temurbek Yumkon o'g'li Temur, Sariq, Shingum va Tug'luq Xo'jaga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxo'ja bilan to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qobulshoh O'g'lonni Movarounnahrda xon qilib ko'taradi. Ilyosxo'ja yana Movarounnahrda yurish qiladi. 1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo'yida Loy jangi bo'lib o'tadi. Temurbek bo'linmasi qarshi tomon bo'linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo'ladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig'ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yag'mo etib qaytadi.



Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo'lga olib Suyurg'otmish O'g'lonni xon qilib ko'taradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi

Temurbekning boshqa davlatlar bilan siyosiy bog'lanishlari

Oltin O'rda davlati – To'qтамishxonning yengilishlaridan keyin Temurbek Oltin O'rdada o'zi xon belgilab keladi va savdo aloqalarini saqlaydi. Oltin O'rda Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga to'la kirmasada ortiq xavf tug'dirmaydigan davlatga aylanadi. Oltin O'rda davlatining cho'kish davri boshlanadi.

Mamluqlilar davlati – Shomdagi qaqshatqich yengilishdan keyin Mamluqli davlati Temurbekning so'rovlarini, elchi Atalmishni qo'yib yuborish va so'ralgan mollarni berish, o'taydi. Urushdan oldin va keyin bir necha bora 2 tomondan ham elchilar borib keladi. Maktublar almashiniladi. Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi.

Jete davlati – 5 bora og'ir yurishlardan so'ng Jete yoki Mo'g'uliston Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga to'la kirmasada ortiq xavf tug'dirmaydigan davlatga aylanadi.

Dehli sultonligi – Dehlidagi qayta tiklanib bo'lmas yengilishdan keyin Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi.

Usmonli sultonligi – Anqara urushidagi qaqshatqich yengilishdan keyin Usmonli davlati Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi. Usmonli davlatida bir necha yillik Fitrat chog'i boshlanadi.

Gurji qirolligi – bir necha bora talanishi va bosib olinishi ortidan Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi. Yillik belgilangan soliq to'lashi belgilanadi.

Eron, Afg'oniston va Kavkazdagi davlatlar – barchasi Temurbek davlati ichiga kiradi.

Rus davlati – To'qтамishxonning yengilishi ortidan Temurbekka bir qancha sovg'a salomlar o'taydi. Bir qancha shaharlari tekislanadi. Moskva yag'mosi esa tarixchilar orasida tortishmali. Ko'plab rus tarixchilari, aynan kim Yakubovskiy. A.Y va Grekov. B. D „Oltin O'rda va uning qulashi“(Zolotaya Orda i ee padenie) kitobida Temurbek Mashkav(Moskva)ni olmaganligi, Mashkav olinganligi va talanganligi to'g'risida o'z kitoblarida bilgi bergan Nazimiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning jug'rofiya(geografiya) bilimlari Rus geografiyasi borasida yetarli emasligini, ular ikkovlari birdek adashib Ryazanni Moskva deb o'ylaganliklarini aytib o'tadilar. Biroq Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyda Moskvani va undanda uzoqroqda, shimolroqda bo'lgan yerlarningda aniq geografik bilimlari borligiga tegishli bir necha bitiklar uchraydi.



Fransiya qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalari oʻrnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi boʻladi.

Kastiliya(Ispaniya) qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalarini oʻrnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi boʻladi.

Vizantiya imperiyasi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Istanbul uchun Temurbekka juzya(din soligʻi)ni oʻtaydi. Elchilar almashinuvi boʻladi.

Xitoy davlati (Ming imperiyasi) – Xitoy bilan savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud boʻlgan. Temurbekning oʻlimi ortidan Xitoy yurishi qoldiriladi.

Temur va Fransiya qiroli:U davlat ahamiyatiga ega boʻlgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatdatibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar oʻtkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahrudin Ahmad, mavlono Nuʼmonuddin Xorazmiy, Xoʻja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqa xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va maʼnaviyat aqliga koʻrsatgan gʻamxoʻrligi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: „Agar Temur qayerda fan, madaniyat va sanʼat ahlini uchratsa, ularni oʻz homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom koʻrsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan oʻz oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi“. Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik gʻoyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Klavixo Samarqand bozorlarida bugʻdoy va guruchning moʻlligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini – atlas, kimxob, har xil ip va jun toʻqima mollar, moʻynali va ipakli poʻstinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham taʼkidlaydilar. Bu davrda Amir Temur va uning joy Sulton Mahmudxon asir olingan noiblari Xitoy va Hindistondan Oʻrta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yoʻnalgan asosiy xalqaro savdo yoʻli – „Buyuk ipak yoʻli“ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini taʼminlashda, rabotlar, qalʼalar, koʻpriklar qurish yoʻlida muhim chora-tadbirlar koʻrdilar va Sharq bilan Gʻarb oʻrtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga gʻoyat katta eʼtibor berdilar. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar oʻrtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qoʻshdi. Amir



Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Xulosa qilib aytganda buyuk ajdodlarimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stlik hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekanini teran anglagan. Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan-Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondan- Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

Foydalanilgan manbalar:

- 1.- Axmad Muhammad-Tursunning- Dunyoni- Tebratgan- Buyuklar- kitobi,14-sahifa
2. Maxmud Shokirning "Islom Tarixi" asari
3. Amir Temurning "Men – Fotix Temur " asari
4. Abdurrahim Uchqun Domlani "Manam Temuri jahonkusho"asari
5. Sharafiddin Ali Yazdiyning qo'l yozma asari